

каби (34 нафар) шоирларнинг шеърларини ўзбек китобхони ҳукмига ҳавола қилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ҳаққул И. Шоир нафаси – ўчмас нафас. <https://kh.davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-shoir-nafasi-ochmas-nafas-usmon-qochqorni-xotirlab.html>
2. Қўчқор У. Ҳаяжонга кўмилган дунё. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 46.
3. Ҳусайн Курдўғли. Сайланма (Усмон Қучқор таржимаси). – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 68.
4. Ғафуров И., Мўминов О ва бошқалар. Шеърый таржима хусусида – Тошкент: Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – Б.196.
5. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Фил. фан доктори дис. автореф. – Тошкент: 1996. – Б.32.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA TALMEH VA UNING KO‘RINISHLARI

Bozorova Gulmira Botirovna,

BuxDU 2-

bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada Abdulla Oripovning talmeh san’atidan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan. Shoir qo‘llagan talmehlarning mohiyati va uning ichki ko‘rinishlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy san’atlar, talmeh, tarixiy shaxslar, mashhur asarlar, asar qahramonlari, yulduz nomlari, payg‘ambarlar.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov she’rlarida ko‘p qo‘llangan badiiy san’atlardan biri talmehdir. Talmeh arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosi “chaqmoq chaqilishi”, “bir nazar tashlash” demakdir. Badiiy san’at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashga xizmat qiladi. Shoir ijodida ham talmehning bir qancha ko‘rinishlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin:

1.Tarixiy shaxslar nomini keltirish orqali talmeh san’atini hosil qilish.

Mangu ekzotika – Rimni u qurdi,
Biroq tiyolmadi ko‘zda yoshini
Yuragiga **Sezar** nayzasin urdi.

Chingizxon cho‘qmori yordi boshini.

Asrlar shundayin tentib o‘tdilar,

Yer uzra hukmron g‘am bo‘ldi faqat! [1,61]

Ushbu satrlar Abdulla Oripovning “Yuzma-yuz” she‘ridan olingan bo‘lib, unda uzoq tarix, quldorlik jamiyati, insonning tabiat ustidan hukmronligi haqida so‘z yuritiladi. Bu jaholatning bor dahshatini to‘la-to‘kis ifodalash maqsadida shoir tarix sahifalarida qonli iz qoldirgan Sezar, Chingizxonlarni tilga oladi.

Beqiyos edi u she‘r lochini!

Xayoli bamisli **Ko‘ragoniy**dek.

Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini

Unga kiygizardi **Sulton Ulug‘bek**.

Balxdan horib qaytgan **Alisher** misol

Endi to‘lg‘izgandi cho‘kkan davotin.

Ketdi bir pok siymo, teran bir xayol,

Qoldirib dunyoda hech o‘chmas otin. [1,123]

Ulug‘ bobokalonlarimiz Ko‘ragoniy, Ulug‘bek, Alisher Navoiy siymolarini gavdalantirish, albatta, shoir shaxsiyatida ajdodlarimizga, ularning tengsiz tafakkuriga nisbatan faxr, iftixor tuyg‘ularining mujassamligidan dalolat beradi. She‘rning to‘la matni bilan tanishar ekanmiz, yuqorida keltirilgan fikrlar Maqsud Shayxzoda siymosini gavdalantirish uchun foydalanilganligini, uning xayolot olami kengligidan Ko‘ragoniyga tenglashtirilganligini, hatto tarix evrilsa, Ulug‘bek qo‘lidan suhrat tojini kiyishga muyassar bo‘lishini anglaymiz.

2. Mashhur asarlar nomini keltirish orqali talmeh san‘atini hosil qilish.

Sening mehnatingdan tuproq ochib zar,

Vatan beqiyos bo‘ston bo‘g‘usi

Sening shavkatingni yozaversa gar,

“**Shohnoma**” yanglig‘ bir doston bo‘lg‘usi. [1,194]

Ma‘lumki, “Shohnoma” asari Abulqosim Firdavsiy tomonidan yozilgan bo‘lib, u Eron va Turon xalqlarining qariyb to‘rt ming yillik tarixini o‘zida jamlaydi. Lirik qahramon Vatanini shunchalik qadrlaydiki, uning shavkatini “Shohnoma” dostoniga taqqoslaydi. U uchun Vatanining shonli tarixi “Shohnoma”dek buyuk asardan hech qolishmaydi.

Shunchalik bo‘lar axir alloma deganlari,

Agarchi qismat chigal, noshukur ul zamona

Javohir iste’dodning mevasi buning bari:

“**Osor ul-boqiya**”yu “**Hindiston**”u “**Saydona**”.

[1,226]

O‘tmishiga, nasli-nasabiga befarq bo‘lmagan kishi borki, “Osor ul-boqiya”, “Hindiston”, “Saydona” asarlari tilga olinganda gap kim haqida borayotganligini angelaydi. Ushbu misralarda buyuk mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniyning nodir asarlarini keltirish orqali talmeh san’ati hosil qilingan. Bunda shoir xalqimiz uchun qimmatli bo‘lgan bu asarlarning qadrini yana bir pog‘ona ko‘tarib, ulug‘laydi.

3. Asar qahramonlari nomini keltirish orqali talmeh san’atini hosil qilish.

Bizning ruhimizga hokimdir ba’zan

Qanoat atalmish ojiz bir sezgi

Otello, Otello, sening ishqingdan

Hayratga tushishning o‘zi bir sevgi... [1,82]

Ma’lumki, Otello Shekspirning “Otello” asarining bosh qahramoni. U adabiyotda rashk timsolini ifodalab keladi. Shoir Otelloning muhabbatiga ishora qilar ekan, uning Dezdemonaga bo‘lgan qaynoq muhabbati rashkka aylanganini e’tiborga oladi. Lirik qahramon bu holatdan faqat hayratga tushishi mumkin.

Kimni **Laylim, Shirinim** deb, baxtim deb atay

Xayotim, deb cho‘qqilarga ko‘taray kimni?!

Yo‘q, yo‘q, o‘tgan muhabbatni qo‘msamayman hech

Nima kerak kulni titish bo‘lmasa uchqun [1,92].

Armonli muhabbat haqidagi yuqoridagi satrlarda chin ishq timsollari Layli va Majnun talmeh qilingan. Lirik qahramon ko‘ngil qo‘ygan go‘zal yetib bo‘lmas manzil. Shuning uchun talmeh va tajohil ul orif uyg‘un kelgan satrlarda Alisher Navoiy “Xamsa”si qahramonlari shu jihatdan ma’no tashiydi. Lirik qahramon qalbi iztirobda. Tajohil ul orif shunday mahzun kechinmalarni ifodalashga xizmat qilgan.

4. Osmon jismlari, yulduzlar nomini keltirish orqali talmeh san’atini hosil qilish.

Deyman: Osmonlarning hiloli bo‘lsam,

Hulkar va **Zuhrosi** bo‘lgim keladi.

Shu go‘zal o‘lkamda kamolga to‘lsam,

Porloq yulduzlarday kulgim keladi [1,15].

Shoirning xayolot olami shu qadar kengki, u osmonga boqib samo peshtoqidagi Hulkar va Zuhro yulduzlarining sirli tabassumini

ko‘ra oladi. O‘zini ularning o‘rnida his etib, ularga havasla boqadi. Vatanida kamolga yetib, yulduzlardek porlashni orzu qiladi.

Oqshom tushmasidan bunda besabr,
O‘nlab ko‘z termular osmon-falakka.
Bu **Zuhal**, mana bu **Dubbi Akbardi**,
Zuhraoy piqirlar bir chetda yakka. [1,187]

Moviy dalalarda o‘zni unutib,
Shabnam ichra kezsa malla rang toychoq
Fazogir **Mirrix**ning mehridan kechib
Boqarmikan unga entikib, mushtoq. [1,224]

5. Payg‘ambarlar nomini keltirish orqali talmeh san’atini hosil qilish.

Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko‘rib, ko‘rmagan kamol.
Muso iltijosi etdi-yu go‘yo,
Haq Tur tog‘i uzra ko‘rgazdi jamol. [1,15]

Ko‘rib turganimizdek, shoir she’rlarining aksariyati talmeh san’ati yordamida mazmunan boyitilgan. Ayniqsa, tarixiy shaxslarga murojaat, qiyoslar ko‘p uchraydi. Tabiiyki, bu kitobxonni tarix ilmidan boxabar bo‘lishga, she’r mazmunini tarixiy dalillar bilan qiyoslab o‘rganishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
2. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.